
TOSHLOQ TUMANIDA MUSTAQILLIK BAYRAMI KO'TARINKILIK BILAN NISHONLANDI

yni kunlarda mamlakatimiz mustaqilligining 33 yillik qutlug' shodiyonalari yurtimizdagi har bir oila, inson qalbiga o'zgacha quvonch ulashayotir.

Mustaqillik kuni tantanalari Toshloq tumanida ham keng nishonlandi. Tuman markaziy o'yingohida bo'lib o'tgan asosiy bayram shodiyonasi barcha toshloqliklar hamda mehmonlarga cheksiz quvonch baxsh etdi. Bayramni tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev kirish so'zi bilan ochib, barchani eng ulug', eng qutlug' ayyom - Mustaqillik bayrami bilan tabrikladi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda, xususan, tumanda bunyodkorlik, sanoat, qishloq xo'jaligi, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilganligini ta'kidladi.

Shundan so'ng, jonajon yurtimiz—Vatanni va bag'rikeng, tanti elimizni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar yangradi. Bayram dasturi so'ngida viloyatimiz xonandalar, shuningdek, poytaxtdan tashrif buyurgan taniqli san'atkorlar yig'ilganlarga bayram kayfiyatini ulashishdi.

Mushaklar esa Mustaqillik bayrami osmoniga turfa ranglar qo'shdi.

Bayram tantanalari tumanimiz mahallalari, madaniyat va san'at maskanlari, xiyobonlar, korxonalar va tashkilotlarda davom etadi.

2024-08-29 20:36:28